

TOSHKENT VILOYATI SUD-TIBBIY EKSPERTIZASI SUD - KIMYO BO'LIMI ISH FAOLIYATI

Yuldasheva Nargiza Sadikovna

+99877 974-07-59

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

Toshkent viloyat filiali, sud-kimyo bo'limi laboranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent viloyati sud-tibbiy ekspertizasi sud-kimyo bo'limining ish faoliyati, uning tashkiliy tuzilmasi hamda sud-tergov jarayonlaridagi ahamiyati tahlil qilinadi. Sud-kimyo bo'limi tomonidan zaharlanish holatlari, noma'lum moddalar, alkogol, giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir etuvchi kimyoviy birikmalarni aniqlash bo'yicha olib boriladigan laborator tekshiruvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy analitik usullar, asbob-uskunalar va ekspert xulosasining sud jarayonidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari sud-kimyo ekspertizasining jinoyatlarni fosh etish, o'lim sabablarini aniqlash va adolatli sud qarorini qabul qilishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sud-tibbiy ekspertiza, sud-kimyo bo'limi, toksikologik tahlil, zaharlanish, kimyoviy ekspertiza, laborator tekshiruv, giyohvand moddalar, alkogol aniqlash, biologik namuna, ekspert xulosasi, sud jarayoni, adliya tizimi.

1973 yil 01 yanvardan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Toshkent viloyati ijroiya qo'mitasining tegishli buyruqlari va o'sha davrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1972 yil 29 dekabrda №1888- R-sonli qaroriga ko'ra, Yangiyo'l tumanlararo sud-tibbiy ekspertiza bo'limi negizida viloyat aholisiga sud-tibbiy xizmat ko'rsatuvchi byuro tashkil etilgan. Yangiyo'l shahar tibbiyot birlashmasi qoshida 1973 yil 1 fevraldan yangi tashkil etilgan Toshkent viloyati sud-tibbiy ekspertiza byurosiga Akbarov Vaxob Akbarovich boshliq etib tayinlangan. Akbarov Vaxob Akbarovichning rahbarligi ostida, viloyat byurosi tarkibida dastlab morfologiya, ambulatoriya, qayta va komission ekspertizalar bo'limi, laboratoriya tuzilmalari – sud-biologik bo'limlar qatorida sud-kimyo bo'limi ham faoliyat yuritishni boshlagan. 17.09.2007 yildan boshlab esa Qibray tumani Markaziy shifoxonasiga qarashli bo'lgan bolalar yuqumli kasalliklar bo'limi binosi to'laligicha viloyat byurosi balansiga berilib, hozirgi kunda ikkita ikki qavatli alohida binolarda filial ma'muriyati va laboratoriyalar kompleksi faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi sud-tibbiy xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 4 dekabrda PQ-4049-sonli Qarori asosida, 2019 yil 8 fevraldan boshlab, Toshkent viloyati sud-tibbiy ekspertiza byurosi negizida

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Toshkent viloyati filiali tashkil etildi. Hozirgi kunda filial rahbari Shodiev Gafur Barotovich tomonidan mazkur Qarorda belgilab berilgan: Filialning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan birga aholiga sud-tibbiy xizmatni yaqinlashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni zamon talabiga mos darajaga olib chiqish, ekspertiza va tekshiruvlarning sifati, ishonchlilik va ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish, ekspertiza o'tkazish uslublarini takomillashtirish, faoliyatga innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, muassasaning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar ish sharoitini yaxshilash uchun bo'linmalarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish va ularni jihozlash, muassasa bilan sog'liqni saqlash idoralari va sud-tergov organlari o'rtasida elektron hujjat aylanish tizimini shakllantirish, soha xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni yaxshilash kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda sud-kimyoviy xizmatni tuman sud-tibbiyot bo'linmalariga yaqinlashtirish va tekshiruvlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish, ayniqsa, jinoyat ishlarini hal qilishda, shuningdek, shahar va tuman kasalxonalari bo'limlariga tashxislarni aniqlashtirish va fuqarolarni tekshirish paytida mastlik faktini va darajasini aniqlash uchun jinoyat va huquqbuzarliklarni, shu jumladan yo'l harakati qoidalarini buzganlikda gumon qilinayotganlarga xuquqiy baho berishni tezlashtirish maqsadida Chirchiq shahar bo'linmasi tarkibida sud-kimyo bo'limi tashkil etildi.

Laboratoriya tekshiruvlaridan keng va to'laqonli foydalanish birlamchi ekspertiza xulosalarining aniqligi, ilmiy asoslanganlik darajasini oshirishi hech kimga sir emas. Shu sababli, filialda laboratoriya xizmatini rivojlantirish va takomillashtirish hamda ularni zamon talablariga mos tarzda uskunalar bilan jihozlash ustivor yo'nalishlardan biri sifatida qaralib, oxirgi yillarda sud-kimyo laboratoriyasi moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, jihozlanishi, mutaxassislar bilan ta'minlanishi yaxshilandi. Hozirgi kunda Filialning sud-kimyo xizmatining moddiy-texnik bazasi yaxshilanib yangi texnologiyalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, tirik shaxslarning biologik ob'ektida (qon, siydik) va autopsiya namunalari etil spirti va uning gomologlarini aniqlash uchun yanada rivojlangan, dasturlashtirilgan xromatografik apparat "Krystallyuks- 4000M"dan foydalaniladi.

Inson siydigidagi boshqa giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar (opiatlar, kannabinoidlar, amfetamin hosilalari, barbituratlar, benzodiazepin hosilalari, metadon va so'nggi yillarda sintetik katinonlar va sintetik kannabinoid analoglarining metabolitlari) uchun ham immunoxromatografik (IXA) usuldan dastlabki sinov usuli sifatida foydalanib kelmoqda.

2023-yildan boshlab dastlabki IXA sinovidan so'ng giyohvand moddalar va psixofaol moddalarni tasdiqlash va aniqlash uchun mass-selektiv detektor bilan

jixozlangan gaz xromatografidan foydalanish boshlandi. Buni amalga oshirish uchun bo'limlarda uskunalarini joylashtirish va biologik sinov usulini qo'llash uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Sud-kimyoviy tekshiruvlar va ekspertizalar paytida biologik namunalarni tayyorlash uchun zamonaviy uskunalardan foydalanish bo'yicha xodimlar Rossiya Feredatsiyasining Perm shahrida malaka oshirib kelishdi.

Sud-kimyoviy ekspertiza vazifalariga muvofiq, o'rta tibbiy ma'lumotga ega mutaxassis, ekspert nazorati ostida, uslubiy tavsiyalarga muvofiq ashyoviy dalillar va unga ilova qilingan hujjatlarni ro'yxatga oladi va sud-kimyoviy tahlil uchun namunalarni tayyorlaydi (maydalash, tortish, dozalash); har xil turdagi zaharli moddalarni ajratish; turli konsentratsiyadagi reagentlar va eritmalarni tayyorlaydi, o'lchash idishlari va dozalash moslamalarini kalibrlaydi, o'ta xavfli yuqumli reagentlarni o'z ichiga olgan materiallar bilan ishlashda sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi; tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish uchun tayyorlashda ishtirok etadi. Sud-kimyo bo'limining o'rta tibbiyot xodimlari tadqiqotlar natijalariga asoslangan statistik ma'lumotlarni to'plashda ishtirok etadilar, keyin ular umumlashtiriladi va o'tkir zaharlanishlarni kuzatish uchun ishlatiladi.

Bo'limda nafaqat sud-tergov organlarining qarorlari asosida sud-tibbiy ekspertizalar va autopsiya tadqiqotlarini, balki tirik shaxslardan olingan biologik namunalarning ham eng qisqa vaqt ichida kimyoviy toksikologik tadqiqotlarini pullik xizmat asosida o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Masalan, shaxsni ommaga oshkor qilmaslik zarurati bo'lgan vaqtlarda, hayotda uchrab turadigan ba'zi huquqiy bahsli holatlarda, tibbiy-huquqiy xulosalarni olish endi ancha osonlashdi. Tanada jarohat bor-yo'qligini aniqlash, zo'rqlash holatlari, kishining alkogol, narkotik, zaharli va psixotrop moddalar iste'mol qilganligi aniqlash shular jumlasidandir.

Yangi yuqori texnologiyali uskunalar va yangi texnologiyalarning joriy etilishi bilan barcha darajadagi ishchilarga, jumladan, o'rta tibbiyot xodimlariga laboratoriya ishlari qoidalariga qat'iy rioya qilish va o'z malakalarini doimiy ravishda oshirish talablari ortib bormoqda. Bo'limdagi o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha mutaxassislar Markazda laboratoriya ishlari texnikasining o'ziga xos xususiyatlari, biologik namunalarni tayyorlashning standart ish tartiblari va sifat mezonlariga muvofiq laboratoriya ishlari bo'yicha o'qitiladi.

Sud-kimyo bo'limidagi mavjud uskunalar va xodimlarning sud-kimyoviy tahlil usullari bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'qitish tahlilni zamonaviy darajada va qisqa vaqt ichida o'tkazish imkonini beradi. Olib borilgan tadqiqotlarning sifati va uni yakunlash muddatlarini qisqartirish sud-kimyo bo'limining butun xodimlar jamoasiga bog'liq bo'lib, bu ishda hamshiralarning roli katta. Davlatimiz tomonidan tizim oldiga qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarish, O'zbekistonda huquqiy jamiyatni barpo etilishida o'zining munosib hissasini qo'shishda Sog'liqni saqlash tizimida fidokorona

xizmat qilib, tibbiyot jamoatchiligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida hamda aholi orasida alohida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lish kabi vazifalarini a'lo darajada bajarib borish ustivor maqsadlarimizdan biridir. Zero, hozirgi zamon talabi bilan hamnafas bo'lib, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan tibbiyot oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, vazifalar ijrosini ta'minlash har bir tibbiyot xodimining burchidir.

Xulosa

Toshkent viloyati sud-tibbiy ekspertizasi sud-kimyo bo'limi faoliyati sud-tergov jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Bo'lim tomonidan olib boriladigan toksikologik va kimyoviy tahlillar jinoyat holatlarini aniqlash, zaharlanish sabablarini belgilash hamda o'lim holatlariga aniq huquqiy baho berishda asosiy dalil manbai bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy laborator asbob-uskunalar va analitik usullardan foydalanish ekspertiza xulosalarining aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Bu esa sud organlariga adolatli va qonuniy qaror qabul qilishda katta yordam beradi. Shu bois, sud-kimyo bo'limi faoliyatini takomillashtirish, mutaxassislarning malakasini oshirish va texnik bazani mustahkamlash sud-huquq tizimining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Sud-kimyo ekspertizasi adolatni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Shodiev G'.B. Тошкент вилояти суд-тиббий экспертиза хизматининг шаклланиши ва ривожланиши. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi AXBOROTNOMASI. 11.09.2023 y
2. L.T.Ikramov, M.A.Mirxaitov, M.A.Tojiyev, Z.A.Yuldashev "Toksikologik kimyo" Toshkent 2010y.